

YOSH DAVRLARI VA UNING TURLI PSIXOLOGIK MUAMMOLARINING PSIXOLOGIYADA TADQIQ ETILISHI

Sharafullaeva Shaxlo Kaxramonovna

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yosh psixologiyasini o‘rganishda psixika va xulq - atvorda bir yosh davridan ikkinchisiga o‘tishda yuzaga keladigan turli xil o‘zgarishlarni o‘rganadi. Odatda bu o‘zgarishlar hayotning muayyan bosqichlarida, 1 necha oydan (go‘daklik davri) to bir necha yillarni (katta yosh davrida) o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Yetuklik, jins, psixologiya, shaxs, yolg‘izlik, men.

Sharafullaeva Shakhlo Kahramonovna

Teacher of Termiz State University

ABSTRACT

In the study of the psychology of age, he studies the various changes in the psyche and behavior that occur during the transition from one age period to another. Usually, these changes take place at certain stages of life, from a few months (infancy) to several years (in adulthood).

Key words: Maturity, gender, psychology, personality, loneliness, self.

Шарафуллаева Шахло Каҳрамоновна

Преподаватель Термезского государственного университета

АННОТАЦИЯ

При изучении психологии возраста он изучает различные изменения психики и поведения, происходящие при переходе от одного возрастного периода к другому. Обычно эти изменения происходят на определенных этапах жизни: от нескольких месяцев (младенчество) до нескольких лет (во взрослом возрасте).

Ключевые слова: Зрелость, пол, психология, личность, одиночество, самость.

Yosh psixologiyasi xar bir yosh davridagi qaytarilmas xususiyatlari va yillar o‘tgan sari, asta – sekin bola qanday qilib inson bo‘lib shakllanishini, shaxs sifatida

o‘z- o‘zini ijtimoiy sohalarda namoyon qilishi, kasb tanlashi va muloqot jarayonlariida o‘zining erk, huquq va majburiyatlarini anglab etishi unga intilishi, qanday qilib sevishi, ishonchli do‘st sifatida kamol topishi , o‘zi va atrofdagilar uchun ma’suliyatni xis qilishi kabi jihatlarni tadqiq etadi¹.

Yosh psixologiyasini o‘rganishda psixika va xulq - atvorda bir yosh davridan ikkinchisiga o‘tishda yuzaga keladigan turli xil o‘zgarishlarni o‘rganadi. Odatda bu o‘zgarishlar hayotning muayyan bosqichlarida, 1 necha oydan (go‘daklik davri) to bir necha yillarni (katta yosh davrida) o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘zgarishlarni “ doimiy ta’sir etib turuvchi ” omillar – biologik etilishda hamda inson organizmidagi psixofiziologik holatini; uning insonga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlар tizimidagi tutgan o‘rni; intellektual va shaxs rivojlanishi jarayonida erishgan darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Psixika va xulq – atvorda yuzaga keladigan bu turdagи yoshga xos o‘zgarishlarni evolyutsion o‘zgarishlar deb atash mumkin.

Evolyutsion o‘zgarishlarni miqdoriy va sifatiy qayta qurishlarda nisbatan sekinlik-astalik bilan amalga oshadi. Nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida muhim yuz berib turadigan chuqur o‘zgarishlarni revolyutsion o‘zgarishlar deb atash mumkin bo‘ladi. Revolyutsion o‘zgarishlarni odatda bir yosh davrining tugallanishida, ikkinchi yosh davrining boshlanishi arafasida ro‘y beradi va yosh taraqqiyotining inqirozlari bilan bog‘liq hisoblanadi.

Yosh taraqqiyotida inqirozlar hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixikani va xulq – atvorda ro‘y beradigan revolyutsion qayta (qurishlar) tuzilishlarga yoshni davrlarga ajratishning asoslari va ulardan biri sifatida qaralishi mumkin. Rivojlanish belgilarini biri bo‘lgan yana bir turdagи o‘zgarishlar aniq bir ijtimoiy vaziyatnin ta’siri bilan bog‘liq va ularni situatsion (ya’ni vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan) o‘zgarishlar ham deyish mumkin. Bunday o‘zgarishlarni inson xulq – atvori va psixikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta’lim va tarbiya ta’sirida paydo bo‘ladi. Evolyutsion va revolyutsion o‘zgarishlarni barqaror hamda qaytarilmas bo‘lib, sistematik mustaqamlash talab qilinmaydi. Situatsion o‘zgarishlarni biz beqaror va o‘zgaruvchanligini anglagan holda, ularga mashqlar orqali mustaqamlash talabi qo‘yiladi. Evolyutsion va revolyutsion o‘zgarishlar inson psixologiyasini shaxs sifatida qayta o‘zgartirsa, situatsion o‘zgarishlarni xulq – atvorning ba’zi ko‘rinishlari, bilim, malaka va ko‘nikmalar orqali hosil qiladi.

Shveytsariyalik psixolog E.Klaparez “Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika” asarida qiziqish, motiv, eqtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar

¹ Sh.A.Dustmuxamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaeva Yosh davrlari pa pedagogik psixologiya. Toshkent, TDPU

tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatları, o‘xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to‘g‘risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psixolog E.Dyurkgeom-ulg‘ayish-kishilarning his-tuyg‘ularni o‘zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning, ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an’ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutishini uqtiradi.

Yana bir fransuz psixolog P.Janenning fikriga ko‘ra, inson psixikasini ijtimoiy munosabatlarga bog‘lab, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasida turli aloqalar tizimining shakllanishi insonlarni ulg‘ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida hatti-harakatlarnini tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janenning ta’kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyilini hisoblanadi.

Amerikalik Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta’lim o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjudligini ta’kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o‘qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayn, Dj.Uotson, F.Galton, A.Anastazi, A.Bike, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta’limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarining, dasturli ta’lim, ko‘nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o‘rni va ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o‘rin egallashlari mumkin. Bu ta’limotlar hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda ham yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolaridan bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlarni pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilishi kuzatilmogda. Mazkur muammolarni hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida olib borilayotganini ilmiy tadqiqotlarning yutuqlarini va g‘oyalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda o‘zining munosib o‘rnini egallab kelmoqda. Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G‘oziev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini aytib o‘tish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning texnik qobiliyatları, o‘quv motivlarini, zamonaviy maktab o‘quvchisi va uning psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari R.Gaynutdinov, A.Jabborov, F.Haydarovlar tomonidan, tafakkur va ta’limni boshqarish muammosi E.G‘ozievning tashabbusida, iste’dodli o‘quvchilar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi bo‘yicha tadqiqotlarni amalgalashishga oshirishgan.

Hozirgi kunda respublikamizda etakchi oliygoхlar ularning kafedra va laboratoriylarida o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarning tadqiq etilishi yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jiqozlangan sharoitlarda ilmiy-tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan. Yosh psixologiyasini ontogenezdagi turli yosh davrlarining psixik taraqqiyotini umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishning o'sishini, shuningdek turli yosh davrlarining psixologik xususiyatlarini o'r ganadi va tadqiq etadi.

Ontogenet-(yunoncha, ontos-mavjud, jon, zot; genezis-kelib chiqish, paydo bo'lish)-individning paydo bo'lishidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Yoshning ulg'ayib borgani sari, psixik jarayonlarining rivojlanishidagi qonuniyatlarni, undagi etakchi omillarni hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar-yosh psixologiya fanining tadqiqot predmeti deb hisoblash mumkin. Ma'lumki shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarining ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini ijobiy hal qilib bo'lmaydi. Yosh psixologiya fani ham o'z navbatida o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'r ganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarini, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiya hamda uning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'r ganilsa yanada muvaffaqiyatli natija bo'lishini guvoхи bo'lamiz.

Tabiat va jamiyatning qonunlari bilan kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari bor. Bu qonunlar yosh psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'r ganiladiki, bular: bolalar psixologiyasini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasini, o'smirlar psixologiyasini, o'spirinlar psixologiyasini, katta yoshdagi kishilar psixologiyasini va qariyalar (yoki gerontopsixologiya) psixologiyasini o'r ganishi bilan ajralib turadi.

Yosh psixologiyasi fanining nazariy vazifalarini g'oyat muhim va murakkabligi bo'lib, u shaxsning kamol topishi qonuniyatlarini va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyatni, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'sirini xususiyatlarini o'r ganishdan iboratdir.

Yosh psixologiyasining va fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarda namoyon bo'lishi va taraqqiy etishini hamda inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'r ganishda qo'lga kiritilgan ilmiy dalillarni ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiq qilishni tashkil etadi.

Bu borada ayniqa pedagogik psixologiyani birmuncha ulkan yutuqlarga erishganini bilamiz. Pedagogik psixologiyaning ta'limni yangi mazmunda joriy qilishi yuzasidan so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol isboti bo'la oladi.

Ma'lumki keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizning barcha ta'lim tizimlarida ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgarib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.A.Dustmuxamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaeva Yosh davrlari pa pedagogik psixologiya. Toshkent, TDPU
2. Ананьев Б.Г. Структура развития психофизиологических функций взрослого человека. // Хрестоматия по возрастной психологии. М.: ИПП, 1996. С. 275—283.
3. Бодалёв А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. М.: Флинта: Наука, 1998.
4. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Под ред. Д. И. Фельдштейна. М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО МОДЭК, 1995. 352 с.
5. Большунова Н. Субъектность как социокультурное явление / Н. Большунова. Новосибирск, 2005.
6. Братусь Б.С. К проблеме развития личности в зрелом возрасте. // Вестник Моск. ун-та. Серия 14. Психология, 1980. № 2. С. 3—11.
7. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. Минск. Харвест, 1998.
8. Abdurashidovna, C. S. (2023). THE ROLE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE EMOTIONAL FORMATION OF PUPILS. Science and Innovation, 2(12), 358-361.